



## RAQAMLI SIVILIZATSIYA VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TUSHUNCHALARI – ASR FENOMENI SIFATIDA

**Saidaxmatova Sadoqat Usmonjon qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent*

*Davlat Pedagogika Universiteti,*

*Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi*

*sadoqatsaidaxmatov@gmail.com*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada raqamli sivilizatsiya va raqamli transformatsiya tushunchalarining ilmiy asoslari tahlil qilinib, ularning hozirgi davrdagi roli falsafiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan baholanadi. Raqamli transformatsiya nafaqat texnologik rivojlanish, balki jamiyat va inson tafakkurining yangi bosqichi sifatida ko‘rib chiqilishi haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli sivilizatsiya, raqamli transformatsiya, axborot jamiyati, texnologik rivojlanish, falsafa, ijtimoiy jarayonlar

**Annotation** This article examines the scientific foundations of the concepts of digital civilization and digital transformation, assessing their role from a philosophical and social perspective. Digital transformation is considered not only as technological development but also as a new stage of human cognition and social change.

**Keywords:** digital civilization, digital transformation, information society, technological development, philosophy, social processes

**Аннотация** В данной статье рассматриваются научные основы понятий цифровой цивилизации и цифровой трансформации, оценивается их роль с философской и социальной точки зрения. Цифровая трансформация рассматривается не только как технологическое развитие, но и как новый этап человеческого мышления и социальных изменений.

**Ключевые слова:** цифровая цивилизация, цифровая трансформация, информационное общество, технологическое развитие, философия, социальные процессы

### KIRISH

O‘zbekistonda ta’lim mazmunini shakllantirish, ta’lim sifatini oshirish, ta’limda raqamli sivilizatsiyalar sharoitida gumanitar ta’lim transformatsiyasining innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu sababdan ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va raqamli

texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy pedagogik jarayon sifatida innovatsion ta‘lim-tarbiyaning e‘tirof etilishi ustoz va shogird faoliyatlariga yangilik, o‘zgarishlar kiritish orqali yoshlarni barkamol insonlar bo‘lib shakllanishlariga xizmat qilmoqda.

Ta‘lim tizimidagi yangilik va o‘zgarishlarning asosiy mazmuni shundaki, an‘anaviy ta‘limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgangan bo‘lsalar, zamonaviy raqamli texnologiyalarda ular egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlari o‘rgatilmoqda. O‘qituvchi bu jarayonda talabaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda menejmentlik - boshqaruvchanlik funksiyalarini bajaradi. Ta‘lim jarayonida talaba esa asosiy nomzodga aylanib, qiziqishi yanada ortib borib yangi metodlarni izlab topib innovatsion g‘oyalar asosida bilimini mustahkamlashga xarakat qiladi.

Bugungi globallashtirgan dunyoda raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olmoqda. XXI asrda sanoat, iqtisodiyot, ta‘lim, madaniyat va jamiyatning turli sohalari raqamli sivilizatsiya tamoyillari asosida rivojlanmoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya tushunchasi tobora dolzarb bo‘lib, u nafaqat texnologik yangilanish, balki jamiyatning har tomonlama o‘zgarishini ifodalaydi. Ushbu maqolada raqamli sivilizatsiya va raqamli transformatsiya tushunchalarining ilmiy asoslari tahlil qilinib, ularning hozirgi davrdagi o‘rni falsafiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan baholanadi.

### **ADABIYOTLAR TAXLILI**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2016 yil 30 dekabrda bir guruh olimlar, ilm-fan vakillari bilan bo‘lgan uchrashuvida ta‘kidlab o‘tganidek, «Yosh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich - maktab ta‘limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta‘minlash zarur. Bu yo‘lda xech narsani ayamay-miz»<sup>51</sup>. Mazkur uchrashuvda Prezidentimiz iqtisodiyotimizning barcha sohalari rivojlanishida ilm-fanning o‘rni, ahamiyati g‘oyat katta ekanini, bu borada davlatimiz taraqqiyotida fan va ishlab chiqarish xamkorligi bugun nihoyatda dolzarb ekanini alohida ta‘kidladi.

O‘zbekistonda ham XX asrning 90-yillaridan innovatsion ta‘lim-tarbiya xamda pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari qator olimlar R.J.Ishmuxammedov, R.X.Juraev, J.F.Yo‘ldoshev, A.Abduqodirov, A.Pardaev, S.T.Turg‘unov, N.Saidaxmedov, G.M.Nazarova, B.Ziyomuxamedov, SH.Abdullaeva, M.Eshmuxamedova, M.Imomnazarov, J.O.Tolipova kabi olimlar tomonidan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI:**

Raqamli sivilizatsiyalar sharoitida oliy ta‘limda transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berish, ta‘lim avvalo o‘quv jarayoni mazmuni, tashkiliy shakllari, o‘qitish metodlari, usul va vositalari asosida o‘qituvchining ta‘lim-tarbiyaning uyg‘unlashuvini ta‘minlay olishi, tajribasi bilan mahorati, izlanishlari, yangilik yaratish salohiyatiga ko‘ra

---

<sup>51</sup> «Xalq, so‘zi» gazetasi. 2016 yil 30 dekabr

yoshlar innovatsion tafakkurining ijtimoiy falsafiy muammolari muntazam takomillashib, yangilanib boradi va o‘qitishning zamonaviy usullari keng jamoatchilik auditoriyasini qamrab olishga samarali yordam beradi

Raqamli svilizatsiyalar sharoitida ta’lim va yoshlar innavatsion tafakkurining ijtimoiy falsafiy muommolari jamiyatimizning xar jixatdan sog‘lom, barkamol yoshlarni shakllantirishga bo‘lgan talab va extiyoji tufayli bugungi ta’lim-tarbiya maqsadlari innovatsion texnologiyaning yaxlitligi, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni loyixalash, natijalarni oldindan kafolatlash, ta’lim-tarbiya qismlarining ketma-ketligi, tashxishlashi, uzviyligi, aloqadorligi, o‘quv materiallarni o‘zlashtirilishining individual darajasi o‘quv bosqichlariga muvofiq izchil sur’atda o‘sib borishini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi.

### **TAHLILLAR VA NATIJALAR:**

Gumanitar ta’limning raqamli transformatsiyasida ta’limning mavjudligi, uzliksizligi va sifatini ta’minlashda innovatsion tafakkurning tamoyillari umumdidaktik tamoyillar- onglilik, faollik, ko‘rgazmalilik, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi, tushunariligi, bilimlar puxtaligi bilan uyg‘unlikda amal qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmonida xam ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini amalga oshirishning samarali mexanizmlarini yaratish - oliy o‘quv yurtlar va ilmiy-tadqiqot institutlari xuzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishga ta’lim va fan sohasini rivojlantirishning eng muhim yunalishlaridan biri sifatida aloxida e’tibor qaratilganiga bog‘liqdir<sup>52</sup>.

Yosh avlodga pedagogik raqamli ta’lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy tavsiyalari talablari asosida fan, texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Yoshlarning bilim olishlarini yuksak darajada ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan, o‘z sohasidagi bilimlarni egallash bilan birga zamonaviy raqamli transformatsiya texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtirgan, interfaol usullarni biladigan va ulardan unumli foydalanadigan o‘qituvchilar kerak. Negaki bugun O‘zbekistonning tayanchi va suyanchi bo‘lgan yoshlar masalasi va ularga zamonaviy raqamli transformatsiyalar, yangicha yondashuvlar va zamon talablari asosida bilim berish davlat siyosatining ustivor yo‘nalishiga aylangan.

### **XULOSA**

Ta’kidlash kerakki, xar qanday raqamli pedagogik ta’lim texnologiya yangilanish, takomillashishga yo‘naltirilgan pedagogik g‘oyalarni taqozo etadi. Ta’lim tizimiga xos yoshlar innavatsion tafakkurini transformatsiyalash ijtimoiy falsafiy muommolari innovatsion

---

<sup>52</sup> zamonaviy ta’lim / sovremennoe obrazovanie 2019, 5(78)

jarayonlar ham ana shu zarurat natijasidir. Mavjud muammolar ushbu mavzuni tanlashda hamda tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarishda asos bo‘ladi.

Yangi talqinda, raqamli transformatsiya shunchaki avtomatlashtirish yoki texnologik rivojlanish emas, balki inson tafakkuri va ijtimoiy institutlarning qayta qurilishidir. Masalan, ta’lim sohasida sun’iy intellekt va virtual ta’lim platformalarining joriy etilishi an’anaviy o‘qitish metodlarining o‘zgarishiga olib kelmoqda

Raqamli transformatsiya nafaqat texnologik, balki ijtimoiy o‘zgarishlarning ham omilidir. Ushbu jarayonni quyidagi jihatlar bo‘yicha tahlil qilish mumkin:

1. Ijtimoiy munosabatlar – Raqamli texnologiyalar odamlar o‘rtasidagi aloqa usullarini tubdan o‘zgartirdi.

2. Falsafiy jihat – Raqamli transformatsiya inson tafakkurining yangi bosqichiga o‘tishini bildiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Innovative Approaches to Education in the Digital Age, D. T. Johnson, 2021, New York, Springer, 245-258 bet.

2. Digital Transformation in Education: A Global Perspective, E. B. Clark, 2022, London, Routledge, 134-145 bet.

3. Pedagogy and Digital Tools in Higher Education, K. M. Sharp, 2020, Oxford University Press, 112-125 bet.

4. Gumanitar ta’limda zamonaviy texnologiyalar, Z. I. Tursunov, 2019, Toshkent, "Ta’lim", 75-89 bet.